

MINTAQADA IT PARKLARNI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Sultanova Zuxra Jaksilikovna

Nukus shahar 1-son texnikum katta o'qituvchisi.

e-mail: zuxrasultanova66@mail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18495396>

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqada IT parklarni zaruriyati, faol ishtiroki va ularni samarali rivojlantirish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, mintaqada IT parklar faoliyatini samarali rivojlantirish yuzasidan takliflar berilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается необходимость создания IT-парков в регионе, их активное участие и пути эффективного развития. Также предлагаются меры по эффективному развитию IT-парков в регионе.

Abstract. This article discusses the need for IT parks in the region, their active participation and ways to effectively develop them. Also, proposals are made for the effective development of IT parks in the region.

Kalit so'zlar. Mintaqa, IT park, texnologiya, imkoniyat, iqtisodiyot.

Ключевые слова. Регион, IT-парк, технологии, возможности, экономика.

Key words. Region, IT park, technology, opportunity, economy.

Bugungi kunda raqamli transformatsiya global iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi barqaror rivojlangan iqtisodiyotning fundamental drayveriga aylanmoqda. Ya'ni, rivojlanayotgan dunyoda bilimga asoslangan sohalarga yo'naltirilgan qo'llab-quvvatlovchi ishbilarmonlik muhiti bilan birlashtirilgan zamonaviy infratuzilma texnologiyalari bilan ajralib turadigan texnologiya va innovatsion park kontseptsiyasining ilovalari paydo bo'lishda davom etmoqda [1]. Shularga muvofiq, mintaqaviy iqtisodiyotni raqamlashtirish, innovatsiyalashtirish va IT-sektorni mustahkamlash maqsadida IT parklar tashkil etilib, ularni samarali rivojlantirish bo'yicha muvofiq strategiyalar ishlab chiqilishi talab etiladi. IT parklar AKT, dasturiy ta'minot, startaplar, raqamli xizmatlar va innovatsion korxonalar uchun maxsus iqtisodiy zona sifatida shakllanadi. Ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun hukumat o'zbek IT-kompaniyalarini birlashtirish va innovatsion texnologiyalar milliy ekotizimini rivojlantirish uchun mo'ljallangan bir qator IT-klasterlarni tashkil etmoqda [2].

IT parklar texnologik ekotizim va kadrlar salohiyatini rivojlantirishda qator vazifalarni bajaradi. Bu borada IT parkni samarali boshqarishni ta'minlash uchun axborot texnologiyalari sohasini mintaqaviy iqtisodiyotda ustuvor yo'nalishga aylantirish, texnologik startaplar uchun qulay muhit yaratish, innovatsiya sanoatlarini rivojlantirish hamda zamonaviy kadrlar bazasini shakllantirish kabi kelgusidagi maqsadlar aniqlanishi lozim. Ushbu maqsadlarga erishish uchun korporativ, davlat va mintaqaviy strategiyalar o'zaro uyg'unlashtirilishi lozim. IT-park ekotizimining inson kapitali bilan ta'minlanishi ijobiy ijtimoiy ta'sirga ega bo'lib, bu ta'lim salohiyati o'sishi va mintaq aholisi hayot sifatini yaxshilashda namoyon bo'ladi [3].

IT parklar faoliyatini qonuniy tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza barqaror va investitsiya jozibador bo'lishi lozim. Bu esa soliq va boj to'lovlarida imtiyozlar (10-15 yil davomida soliq yengilliklari), intellektual mulkni himoya qilishni kuchaytirish, IT parklar uchun maxsus litsenziyalash tizimi hamda korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik va ochiq raqobatni ta'minlashga bog'liq bo'ladi. Shu orqali institutsional asos daqiq, ochiq va barqaror bo'lsa,

investorlar ishonch bilan kirib, faoliyat yo'lga qo'yishi mumkin. IT parklar samaradorligi texnologiyalar esa yuqori tezlikdagi internet to'qimiga (fiber-optic va 5G), ma'lumotlar markazlari va bulutli xizmatlarga, kiberxavfsizlik tizimlariga hamda transport va kommunal xizmatlarning sifatli ta'minlanishi kabi qulay infratuzilmaga bog'liq bo'ladi.

Shuningdek, IT parklarda laboratoriyalar, innovatsion markazlar, konferensiya zallari va ilmiy tadqiqot bo'linmalari bo'lishi raqobatbardosh muhitni kuchaytiradi. Samarali IT parklar faqat texnologiya kompaniyalarini jamlagan joy emas, ya'ni innovatsiya ekotizimini yaratishi kerak. Bu yo'nalishda esa inkubatorlar va akseleratorlar (yangi startaplarni rivojlantirish), mentorlik va konsalting xizmatlari (biznes modellar va strategiyalar bo'yicha maslahat berish) hamda istiqbolli innovatsiyalar jamiyatini rivojlantirish (universitetlar, tadqiqot markazlari va biznes hamkorliklarini tanlash) kabi mexanizmlar joriy etilishi lozim.

Innovatsiya ekotizimining tashkil etilishi natijasida startaplar tez rivojlanishi, yangi texnologiyalar tez joriy etilishi va IT parkda ish o'rinlari ko'payishi kuzatiladi. IT parklar uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini amalga oshirish lozim. Bu esa davlat infratuzilma va siyosiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlab, risklarni kamaytiradi, xususiy sektor texnologik bilim, kapital va bozor tajribasini kiritadi. Davlat-sheriklik loyihalari modellari orqali investorlar uchun ishonchli iqtisodiy muhit yaratiladi. Biroq, IT parklarga kapital jalb qilish uchun soliq imtiyozlari (korporativ soliq, QQS va yer solig'i), import bojlarida yengilliklar, tadqiqot va rivojlantirish loyihalari uchun davlat grantlari hamda yer uchastkalari va binolarni kompensatsiyali taqdim etish kabi ta'minot choralari belgilanishi lozim. Mazkur choralar mahalliy va xorijiy investorlarni jalb etishni osonlashtiradi.

Xulosa shuki, mintaqada IT parklarni samarali rivojlantirish iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, innovatsiyalarni joriy etish, inson kapitalini rivojlantirish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun strategik rejalashtirish, institutsional muhitni takomillashtirish, infratuzilma va raqamli muhitni yaxshilash, investitsiya va inson kapitalini rivojlantirish, hamda monitoring va brend strategiyalarini samarali joriy etish kerak.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Phillips R. Application of the technology and innovation park concept in the developing world: Dimensions and considerations. // Know. Techn., Pol15, 46-60 (2003). <https://doi.org/10.1007/s12130-003-1006-8>
2. Xojiyeva N.D. O'zbekistonda IT-klasterini rivojlantirish istiqbollari va ularni boshqarishning yangi strategiyalarini ishlab chiqish. // "Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali, 4-son, 2023. - 21 b.
3. Якимова В.А. Оценка влияния эффектов развития ИТ-парка на региональную экономику с позиции экосистемного подхода. // Вопросы инновационной экономики, 2024, Т.14, №3. - с. 847-864. - DOI 10.18334/vinec.14.3.121477